

## SHARQ ARISTOTELIZMI, ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI

*Masharipova Gularam Kamilovna, Alfraganus university professori,  
falsafa fanlari doktori (DSc)*

### ARISTOTLEISM OF THE EAST, THE VIEWS OF ABU RAYHAN BERUNI AND ABU ALI IBN SINA

*Masharipova Gularam Kamilovna, Professor of Alfraganus  
University, Doctor of Philosophy (DSc)*

### АРИСТОТЕЛИЗМ ВОСТОКА, ВЗГЛЯДЫ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ И АБУ АЛИ ИБН СИНЫ

*Машарипова Гуларам Камиловна, профессор университета  
Альфраганус, доктор философских наук (DSc)*



<https://orcid.org/0009-0007-0788-2359>

e-mail:

[masharipova.gularam2006  
@gmail.com](mailto:masharipova.gularam2006@gmail.com)

*Annotation:* Maqolada Sharq aristotelizmiga oid Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlariga munosabat ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino qizg‘in babs va munozaralari jarayonida ilmiy bilish metodlaridan biri bo‘lgan dialektik metoddan foydalanganliklarining guvohi bo‘lamiz.

*Kalit so‘zlar:* Sharq, aristotelizm, peripatetizm, falsafiy meros, ratsionalizm, babs-munozaralar.

*Abstract:* The article scientifically substantiates the connection with the philosophical views of Abu Rayhan Beruni and Abu Ali ibn Sina regarding Eastern Aristotelianism. We can also witness how Abu Rayhan Beruni and Abu Ali ibn Sina used the dialectical method, which is one of the methods of scientific knowledge, during their intensive discussions.

*Key words:* East, Aristotelianism, peripatetism, philosophical heritage, rationalism, discussion.

*Аннотация:* В статье научно обоснована связь с философскими взглядами Абу Райхана Беруни и Абу Али ибн Сины относительно восточного аристотелизма. Мы также можем стать свидетелями того, как Абу Райхан Беруни и Абу Али ибн Сина в ходе своих интенсивных дискуссий использовали диалектический метод, который является одним из методов научного познания.

*Ключевые слова:* Восток, аристотелизм, перипатетизм, философское наследие, рационализм, дискуссия.

**KIRISH.** Ma’lumki, VII-IX asrlarda Yaqin Sharqda Aristotelning deyarli barcha asarlari arab tiliga tarjima qilingan va ularga sharhlar yozilgan, uning ko‘pgina g‘oyalari qabul qilingan. Uyg‘onish davrida Sharqda Aristotelning obro‘sni shunchalik baland ediki, muhim tabiiy-ilmiy va falsafiy masalalar ustida gap borganda, albatta, Aristotel tilga olinardi. Bu davrga kelib Aristotel asarlari bilan tanishmay, uning g‘oyalari bilmay turib falsafani o‘rganish va dunyoviy bilimlarga ega bo‘lishni tasavvur etish mumkin emas edi. Sharq aristotelizmi

(peripatetizmi) ana shu zaylda shakllana boshladi va rivojlandi. Sharq aristotelizmi tushunchasining mazmuni shundaki, u Aristotel falsafiy tizimi yoki ta’limotinigina emas, balki naturfalsafa bilan mustahkam bog‘langan ratsionalizmni, u orqali esa o‘rta asr ratsionalistik falsafasini ifodalaydi.

Bugungi kunda Sharq aristotelizmini o‘rganish eng dolzarb muammolardan biridir.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR**

**TAHLILI.** Mavzuga oid adabiyotlar Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy

yozishmalari B.To‘ychiyev [1], Sharq uyg‘onish davri ijtimoiy-siyosiy qarashlarining mohiyatini M.Xayrullayev [2, 233 b], IX-XII asrlardagi tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy merosini G.Masharipova [3, 364 b], [4, 144 b], [5, 210 b.] o‘rgangan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Markaziy Osiyoda yunon falsafiy merosining tarqalishi masalasining aniq javobini topmagan, aniqlashtirishga muhtoj jihatlari haligacha mavjuddir. Xususan, bu savolga, M.Sharipov va X.Muxsimova ta’kidlashicha, “Qanday qilib antik davr madaniyati avval G‘arbda emas, Sharqda tarqaldi, degan savolga mana shunday sharoitlarga ko‘ra Bag‘dod xalifaligiga kiruvchi mamlakatlar antik madaniyatning vorisiga aylandilar” deb javob berish mumkin [6, 44-45-bb].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik va germenevtik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Abu Rayhon Beruniy Beruniy va Abu Ali ibn Sino o‘rtasidagi bahs va munozaralar tasodifan paydo bo‘limgan. Aristotelning deyarli barcha asarlarida, ayniqsa, “Metafizika”, “Fizika”, “Osmon haqida”, “Paydo bo‘lish va yo‘qolish haqida meteorologika” va boshqa asarlar haqida faqat Sharq mutaffakirlari emas, balki uning vatandoshlarining yozishmalari mavjudligi haqida tarixiy manbalar uchraydi. Ilk Uyg‘onish davri tarixiy voqealarga boy va Markaziy Osiyo tarixida muhim davr sifatida izohlanadi. Bu davrning o‘ziga xosligi, undagi kuchli ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy jarayonlar, xususan Xorazm, Samarqand va Buxoro ijtimoiy muhiti, ma’naviy hayot, ilm-u fan rivoji, Xorazm Ma’mun akademiyasining vujudga kelishi, O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning boshqa xalqlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan boy ilmiy va madaniy an‘analarini umumlashtirishda va yanada taraqqiy ettirishda o‘z ifodasini topdi.

Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino qizg‘in bahs va munozaralari jarayonida ilmiy bilish metodlaridan biri bo‘lgan dialektik metoddan foydalanadilar. Abu Rayhon Beruniyning Abu Ali ibn Sinoga bergan birinchi savoldida uning kosmologik nazariyasiga shubha bilan qaraganiga guvoh bo‘lamiz. Osmon sferasining og‘irligi va yengilligi, unda to‘g‘ri chiziqli harakatning bo‘lmasligi, materiya harakati va jismning tortishish nazariyasi haqidagi Abu Rayhon Beruniyning savollari qiziqishga asos

bo‘ldi. Abu Ali ibn Sinoning olam haqidagi ilmiy qarashlarida “aylanma harakat”, “to‘g‘ri chiziqli” harakatning muqobil shakli sifatida e’tirof etiladi. Abu Ali ibn Sinoning fikricha, jismning “to‘g‘ri chiziq bo‘ylab qilgan harakati – bu majburiy harakat bo‘lib, uning sababchisi qandaydir tashqi kuchdir. Binobarin bu harakat “tabiiy harakat”ga ziddir. Harakat va materiya ayni bir xil hodisa emas. Materiyani Abu Ali ibn Sino statik holatdagi hodisa deb biladi. Harakat Abu Ali ibn Sinoning ta’kidlashicha, jism holatining doimiy va tadrijiy o‘zgarib borishidir. Narsaning mazkur holati esa uning obyektiv ravishda boshqa narsaga tomon harakati bo‘lib faol holatda emas, neytral holatda u bilan moslashishi mumkin. Aristotelning kosmologik nazariyasiga ko‘ra, narsaning to‘g‘ri chiziqli harakati narsaning baland va pastga harakati bilan bog‘liq, ya’ni Yer va olam markazidan yoki markazi tomon harakati bo‘lib, ularning mohiyati birdir. Agar jism yuqoriga tomon harakatda bo‘lsa, unda bu jism olov yoki havo yoki ularning elementlaridan hosil bo‘lgan jism bo‘ladi, agar jism pastga tomon harakatda bo‘lsa, unda u suv va tuproq yoki ularning elementlaridan tashkil topgan hisoblanadi.

Dunyoviy bilimlar rivojlanishi uchun shart-sharoitlar tug‘ilishining ijtimoiy omillarini arablar zulmiga mahkum bo‘lgan xalqlarning islom bilan to‘xtovsiz kurashi, dunyoviy ilmlarning taraqqiyoti uchun imkon bergen Hind, O‘rta Osiyo, Eron va ayniqsa, yunon ilmiy fikrining yutuqlarini keng yoyishga olib kelishi bilan izohlash zarur [7, 111-b]. Shuni alohida ta’kidlash joizki, katta kutubxona va astronomik observatoriya ega bo‘lgan o‘ziga xos ilmiy-madaniy markaz yaratishga xalifa Horun ar-Rashid davridayoq urinishgan bo‘lsa-da [8,236-b], biroq mashhur xalifa Ma’munning boshqaruvi paytida “Donolik uyi” (Bayt-ul-hikma)ni qurishi, uning gullab-yashnashi (813-832-yillar), undan keyingi davrlariga to‘g‘ri keladi.

Xususan, Abu Rayhon Beruniy Arastuning “Osmon va olam” kitobi bo‘yicha bergen savoliga e’tiroz bildirib, Abu Ali ibn Sino yozgan edi: “Ko‘pchilik faylasuflar fikrlaricha, olovning vujudga kelishi falak harakati bilan emas, balki olov (ning o‘zi) bir javhar (substansiya), o‘zicha bir unsur bo‘lib, yumaloqdir. Boshqa unsurlarga o‘xshash, uning ham tabiiy o‘rnii bor. Sening hikoyat qilganing (ya’ni so‘rayotganing) o‘shal to‘rt unsurlarning yo‘lidan boshqa ikkita yoki uchta deyuvchi kishining yo‘lidan boshqa narsa emas. Masalan, Fales o‘shal

unsurni suv dedi. Uqlitis (Geraklit) buni olov dedi, Devjons (Diogen) havo bilan suv o'rtasidagi bir javhar dedi. Anikisidiris (Anaksimandr) havo dedi” [9,140-141-bb]. “Yoki, e soil, bu so'zni ...Muhammad ibn Zakariyyo Roziydan oldingmi? Bilmak kerakki, - deb davom ettiradi o'zining Abu Rayhon Beruniy savoliga javob-e'tirozini bildirib Abu Ali ibn Sino, - Aristotelning olamning boshi (ibtidosi) yo'q deganining ma'nosi olamning yaratuvchisi yo'q degani emas, balki maqsadi – olamning yaratuvchisi ishslash (ya'ni, yaratish)dan bo'sh emas, deganidir” [9,139-b].

Aristotel bizga ma'lum bo'lgan olamdan tashqari va undan mutlaq farq qiluvchi boshqa olamning mavjud bo'lishi mumkin emas va biz inson sezgilarining boshqa olamini bilishga ojizligi uchun noma'lum bo'lgan boshqa olam yo'qdir, - degan fikriga Abu Rayhon Beruniy o'z fikrini asoslash uchun quyidagi misolni keltiradi. Ko'zi ojiz tug'ilganidan boshlab ko'rish fenomenini anglay olmaydi, holbuki ko'rish olamni hissiy qabul shakli sifatida mavjud bo'ladi. Boshqa olam ham mavjud bo'lishi mumkin, ammo inson ularni idrok eta olmaydi, chunki u zarur qobiliyat va sifatlarga ega emas. Abu Ali ibn Sino esa boshqa olamlarning mavjudligini va ular bizga ma'lum olamdan farq qilishini tan oladi. Ammo, Abu Ali ibn Sino Aristotel ta'limoti davomchisi sifatida, o'zining javoblarida bizda ma'lum bo'lgan olamga xos bo'lgan belgilarga ega bo'lgan boshqa dunyoning mavjud bo'la olmasligini ta'kidlaydi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolarning fikrlari bir-birlari bilan uzviy bog'liq fikrlar bo'lib, XXI asr fanida olimlar tomonidan faol ilmiy izlanishlar olib borilayotgan ilmiy-falsafiy masalalardandir. Ular aynan bizga ma'lum bo'lgan olam kabi boshqa olamning bo'lishi mumkin emasligini inson bilish imkoniyatlarining cheklanganligi tufayli tan oladilar. Ular bizga noma'lum ekanligini va Abu Ali ibn Sino ham fan-texnikaning rivojlanishi bunday noma'lum dunyolarning mavjudligini isbotlashiga shubha qilmaganlar.

Aristotel o'zining “Fizika va osmon haqida” asarida aylanma harakat doira shaklining mukammal tabiatidan hosil bo'ladi va bunday harakat harakatning mukammali hisoblanadi”, - deydi. To'g'ri chiziqli harakati esa harakatining nomukammal va to'liq bo'limgan tugallanmagan shakli deb hisoblaydi. Chunki to'g'ri chiziqning na oxiri, na boshi bor va unga qandaydir chiziqli qism, bo'lakni

qo'shish mumkin. Aylana harakatlar oliy darajada rivojlangan va takomiliga yetgan hodisa osmon sfera-siga tegishli harakatdir. Aylanma harakatda bo'lgan jismlar og'ir va yengil ham emaslar. Chunki ular pastga tomon ham, yuqori tomon ham harakatda emaslar [9, 18-b].

Abu Ali ibn Sino Aristotelning mazkur ta'limotini qo'llab-quvvatlaydi, og'ir jismlar va ularning elementlari yer markazi tomonga harakatda bo'ladilar, yengil jismlar esa yer markazidan uzoqlashib boradilar. Abu Rayhon Beruniy o'zining savollarida bu masalaga boshqacha yondashadi, bu masalaning yechimi barcha jismlar va ularning elementlari tabiiy ravishda markaz tomonga harakatda bo'lishidadir, - deydi. Abu Rayhon Beruniy o'zining Abu Ali ibn Sinoغا bergen savolida taajjublanib, nechuk Aristotel “atomning bo'linmasligi” haqidagi ta'limotning noto'g'riliqini e'tirof etib, “jismlarning cheksiz bo'linishi” haqidagi ta'limotini inkor etmaydi, degan savolni o'rtaga tashlaydi. To'rtinchı savolda bu holning naqadar ziddiyatli ekanligini Abu Rayhon Beruniy Zenonning “Axilles va Toshbaqa” nomi bilan mashhur apporiyalardan birini keltiradi. Makon – bu cheksiz bo'linmas nuqtalar yig'indisidir. Makonda jismning harakati esa cheksiz nuqtalardan o'tish demakdir.

Abu Rayhon Beruniy Aristotelning olov haqidagi qarashlarini, xususan osmon jismlarining o'zaro ta'siri va ishqalanishi havo bilan to'qnashishi natijasida olovning yuzaga kelishi haqidagi fikriga alohida to'xtaladi. Abu Ali ibn Sino o'z javoblarida ta'kidlashicha, aksariyat faylasuflar Aristotelning bu fikrini yoqlab chiqadilar. Olov alohida materianing shakli bo'lib, u e'tirof etilgan usul bilan paydo bo'lmaydi. Uning tabiatini boshqadir. Abu Ali ibn Sino Abu Rayhon Beruniyning olov haqidagi fikrini qadimgi yunon faylasuflari Miletik (miloddan avvalgi VII asr), Geraklit (miloddan avvalgi V asr) va Anaksimen (milodiy VI-VII asr) ham ilgari surganligini ta'kidlaydi. Falsafa tarixidan bilamizki, Aristotel ularning olov haqidagi qarashlarini tanqid qilgan. Modomiki, olov, havo, suv va yer borliqning substansional asosi va uning universal elementlari sifatida bir-birlaridan tadrijiy ravishda paydo bo'la olmaydi. Bu masala Abu Rayhon Beruniyning fikricha, narsa va hodisalarning tabiatini, uning determinantlari nimalardan iborat ekanligi, narsalarning bir sifatiy holatdan ikkinchi sifatiy holatga o'tishining substansional asoslardagi mavjudligi degan masalani qo'yadi va mayda

zarrachalarning bo‘linishi haqida o‘z fikrini asoslaydi. Abu Ali ibn Sino Abu Rayhon Beruniyning bu fikrini qabul qilmaydi va Aristotelning narsa va hodisalardagi tub sifat va o‘zgarishining asosiy sababi sifatida har qanday narsaning yoki jismning birlamchi materiyasi, uning substansiysi o‘zining shaklini o‘zgartiradi va boshqa bir shaklga o‘tadi, degan fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Boshqacha qilib aytganda, narsalardagi sifatiy o‘zgarishlar avvalo, ularning bir shakliy holatdan ikkinchisiga o‘tishidir. Biz bu yerda Aristotelning boshqa asarlarida e’tirof etilgan shakl va mazmun falsafasining guvohi bo‘lamiz.

**XULOSA VA TAKLIFLAR.** Sharq uyg‘onish davrida Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino Markaziy Osiyo peripatetika ta’limotidan ma’lumki, suyuq jismlar va qattiq jismlar fizika fanining optika, akustika mexanikasi, yorug‘lik fizikasi, atomistik fizika sohalarining ba’zi masalalarini umumiy tarzda tahlil etish Aristotel nazaridan chetda qolgan. Ayniqsa, fizika fanining mumtoz qonunlari va narsalar mohiyatini izohlashda eksperimental usullardan foydalanish masalalarida Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning xizmatlari alohida e’tiborga molikdir. Bu masalalar haqida Aristotel o‘z asarida deyarli fikr yuritmaydi. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino bu sohani uyg‘onish davri fanlari yutuqlari asosida rivojlantirgan buyuk mutafakkirlardir.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. To‘ychiyev B. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy yozishmalari. – T.: Ijod-print, 2020.

2. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. - Toshkent: Fan, 1971. –233 b.
3. Masharipova G.K. Xorazm Ma’mun Akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri. Monografiya.- Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2019. - 364 b.t.
4. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma’naviy merosining jamiyat hayotidagi o‘rni. Monografiya. – Toshkent, Navro‘z nashriyoti, 2020. - 144 b.t.
5. Masharipova G.K. O‘rta asrning buyuk kashfiyotlari – xorazmlik matematiklarning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shtigan hissalar. Monografiya. - Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2021. – 210 b.
6. Sharipov M., Muxsimova X.V. Markaziy Osiyoda dunyoviy ilmlarning qaror topishi //Dunyoviylik falsafasi. – Toshkent: TDIU, 2007.
7. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1980.
8. Abduxalimov B. Bayt-al-hikma va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘dodda ilmiy faoliyati (IX-XI asrlardagi aniq va tabiiy fanlar). – Toshkent: Islom universiteti, 2004.
9. Aristotelning “Osmon va olam” kitobi bo‘yicha Abu Rayhon Beruniyning o‘nta savoli va ularga Abu Ali ibn Sinoning javoblari //O‘zbekistonda ilg‘or ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. -Toshkent: Fan, 1959.
10. Kurbanbayeva, M. (2023). Abu Rayhon Beruniy hayotiga doir ba’zi mulohazalar. Tamaddun nuri jurnali, 9(48),64-66.

